



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	

MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH – KELAJAK AVLOD KAMOLOTIGA QARATILGAN STRATEGIK ISLOHOT

Kamolova Gavhar Akbarovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari, PhD dotsent v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari, kelajak avlod kamolotini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning mazmuni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, sohani modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kelajak avlod, kamolot, strategik islohot, ta'lim-tarbiya, rivojlanish, taraqqiyot, innovatsiya, pedagogik yondashuv.

Abstract: This article analyzes the strategic directions for the development of the preschool education system and the content of reforms aimed at ensuring the comprehensive development of the younger generation. Particular attention is given to the modernization of the sector, improvement of educational quality, and the implementation of innovative pedagogical approaches.

Key words: preschool education, younger generation, development, strategic reform, education and upbringing, modernization, innovation, pedagogical approach.

Аннотация: В статье проанализированы стратегические направления развития системы дошкольного образования и содержание реформ, направленных на обеспечение гармоничного развития подрастающего поколения. Рассмотрены вопросы модернизации сферы, повышения качества образования и внедрения инновационных педагогических подходов.

Ключевые слова: дошкольное образование, подрастающее поколение, развитие, стратегическая реформа, воспитание и обучение, модернизация, инновации, педагогический подход.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda inson kapitaliga investitsiya kiritish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida maktabgacha ta'lim alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan shu bosqichda bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi va shaxsiy rivojlanishining ilk asoslari shakllanadi. Shu ma'noda, maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak jamiyatini barpo etishning muhim sharti hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-son¹ Farmoni sohani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim strategik hujjat sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu hujjat mamlakat rahbari – Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalarning erta rivojlanishini ta'minlash va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan izchil siyosatning mantiqiy davomi hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-8037353>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'limni rivojlantirish jarayonining strategik yo'nalishlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida yig'ildi. Birlamchi ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va pedagoglari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma, yarim tuzilgan intervyular hamda kuzatuv natijalari orqali olindi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, statistik hisobotlar va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar kontent-tahlil, qiyosiy-tahliliy yondashuv va statistik umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, tizimlashtirildi. So'rovnoma natijalari foiz ko'rsatkichlari asosida guruhlashtirildi hamda ularning ishonchligi deskriptiv statistik usullar orqali tekshirildi. Shuningdek, mavjud tajriba va ilg'or amaliyotlar SWOT-tahlil asosida baholanib, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim – inson kapitali shakllanishining ilk bosqichi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limga sarflangan investitsiya jamiyat taraqqiyotiga eng katta samara beradigan sarmoya hisoblanadi. Bolaning kognitiv qobiliyatlari, ijtimoiy ko'nikmalari va ijodiy tafakkuri aynan ilk yoshda shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ta'lim mazmunini yangilash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Yuqoridagi farmonda maktabgacha ta'limni faqat bolani parvarish qilish tizimi sifatida emas, balki uning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhiti sifatida shakllantirish vazifasi belgilab berilgan. Bu esa maktabgacha ta'lim mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning intellektual, ijodiy, jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydigan muhitni shakllantirish, o'yin orqali ta'lim berish metodlarini takomillashtirish hamda bolalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish kabi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Muammoga oid metodlar. Innovatsion maktabgacha ta'lim muhitini shakllantirish maqsadida farmonda maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va ular huzurida Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlarini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan. Bu markazlar bolalarning tabiiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Ularda fan va matematika elementlari, til va muloqot ko'nikmalari, ijod va san'at, jismoniy rivojlanish, robototexnika va algoritmash asoslari kabi yo'nalishlarda o'quv-o'yin maydonlari tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Bunday yondashuv bolalarning erta yoshdan tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish imkonini beradi. Shu orqali maktabgacha ta'lim tizimi mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi.

Pedagog kadrlar tayyorlash – islohotlar muvaffaqiyatining asosi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarning samarasi, avvalo, ushbu sohada faoliyat yuritadigan pedagog kadrlar salohiyatiga bog'liq. Shu bois farmonda pedagogika oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. 2026–2027-o'quv yilidan boshlab maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlash xalqaro ilg'or tajribalarga moslashtirilgan ta'lim dasturlari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Bu esa pedagogika universitetlarida ta'lim mazmunini yangilash va kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirishni talab etadi. Ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi amaliyotini kengaytirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun dual ta'lim shaklida bakalavr tayyorlash tizimini joriy etish ta'lim va amaliyot integratsiyasini yanada mustahkamlaydi. Bu esa tarbiyachilarning malakasini oshirish va sohadagi kadrlar salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy hamkorlik va innovatsion rivojlanish. Yangi tashkil etilayotgan innovatsion maktabgacha ta'lim markazlari pedagogika universitetlari uchun ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Bu hamkorlik yangi metodik ishlanmalarni yaratish, pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini innovatsion mazmun bilan boyitish, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyachilarning malakasini muntazam oshirish imkonini beradi. Bu jarayon maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmiga aylanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning ahamiyati. Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga ham qaratilgan. Bolaning ma'naviy dunyosi aynan ilk yoshda shakllanishi inobatga olinganda, tarbiyachilarning ma'naviy-axloqiy salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogika universitetlarida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar kelajak tarbi-

yachilarda kasbiy mas'uliyat, pedagogik madaniyat, bolaga mehr-muhabbat va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Zamonaviy tarbiyachi nafaqat bilimli mutaxassis, balki bolaning shaxsiy rivojlanishiga yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy yetakchi ham bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, tarbiyachi tayyorlash jarayonida ta'lim va tarbiya uyg'unligi ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yangi islohotlar mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli strategiyasi bilan chambarchas bog'liq. Bolalarning erta rivojlanishi uchun zamonaviy ta'lim muhitini yaratish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Pedagogika universitetlari, xususan maktabgacha ta'lim tizimiga kadr tayyorlaydigan fakultetlar ushbu islohotlarni amalga oshirishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy bilim, milliy qadriyatlar va innovatsion pedagogik yondashuv uyg'unligi ta'minlangandagina maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlar kutilgan samarani beradi.

Zero, maktabgacha ta'limga qaratilgan e'tibor – mamlakat kelajagiga qaratilgan e'tibordir. Kelajak avlod tarbiyasiga kiritilgan har bir investitsiya Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-son Farmoni.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent – 2022.
3. UNESCO. Early Childhood Care and Education: Global Report. Paris – 2021.
4. Maxmutazimova, Y., & Qodirova, S. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 676755.
5. Rakhmatovna, M. Y. (2026). The set of expected outcomes in the implementation of the pedagogical diagnostic process for the development of speech in preschool-aged children. Shokh Articles Library, 1(1).
6. Kamolova, G. A. (2024). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari. Inter Education & Global Study, (5), 439–446.
7. Kamalova, G. A. (2024). Bolalarni maktabga tayyorlashda oilaning o'rni. Inter Education & Global Study, (7), 149–157.
8. Rakhmatovna, M. Y. (2026). The set of expected outcomes in the implementation of the pedagogical diagnostic process for the development of speech in preschool-aged children. Shokh Articles Library, 1(1).
9. Abzalxanovna, S. M. (2024). Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy metodik kompetensiyalarini rivojlantirish. Obrazovanie, nauka i innovatsionnye idei v mire, 44(10), 37–40.
10. Abzalxanovna, S. M. (2024). Methodology of forming the competence of future teachers. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 2(4), 139–141.
11. Abzalxanovna, S. M. (2023). Jahon reytingi va bo'lajak tarbiyachilarni kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari. Science and Innovation, 2(Special Issue 13), 758–761.
12. Furkatovna, K. D. (2025). Effectiveness of improving technologies for the development of social competence of future educators. Shokh Library.
13. Khalilova, D. F. (2025). Facilitator competence of the future preschool educators. Bulletin News in New Science Society International.
14. Furkatovna, X. D. (2024). The role of social competence in the professional activity of future educators of preschool educational institutions. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 2(3), 59–61.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.